

**Ernazarov Shukrulla Eshboy o`g`li**

**Mirzo Ulug`bek nomidagi**

**O`zbekiston Milliy universiteti**

**Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti**

**Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası o`qituvchisi**

**TERMIZ SHAHRINING SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY**

**IJTIMOIIY RIVIJLANISHIDA TUTGAN O`RNI**

***Anotatsiya:** Respublikamizning bozor munosabatlari sharoitida barqaror rivojlanishi va o`z iqtisodiyotini takomillashtirib borishi ko`p jihatdan shaharlar rivojlanishiga bog`liq hisoblanadi. Termiz shahrining ham Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida tutgan o`rni juda yuqori. Shu bois Termiz shahri o`rganish viloyat iqtisodiyoti uchun ahamiyatlidir.*

***Kalit so`zlar:** shahar, Termiz shahri, Surxondaryo, tarixiy, geografik o`rin, viloyat.*

**Ernazarov Shukrulla Eshboy ugli**

**In the name of Mirzo Ulugbek**

**National University of Uzbekistan**

**Faculty of Geography and Geoinformation Systems**

**Teacher of the Department of Economic and Social Geography**

**THE ROLE OF TERMIZ CITY IN THE ECONOMIC AND SOCIAL**

**DEVELOPMENT OF SURKHANDARYA REGION**

***Abstract:** The stable development of our republic in the conditions of market relations and the improvement of its economy depend to a large extent on the development of cities. The place of Termiz city in the economy of Surkhandarya region is very high. Therefore, studying the city of Termiz is important for the economy of the region.*

***Key words:** city, Termiz, Surkhandarya, historical, geographical place, province.*

Mintaqa hududiy urbanistik tarkibida eng yirik shahar Termizda o`tkazilgan arxeologik qazilma materiallari shaharning uzoq tarixga ega ekanligidan darak

beradi. IX-XI asrlarda shahar yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik markazi sifatida taraqqiy etgan bo'lsa, keyinchalik geosiyosiy va iqtisodiy geografik o'rni, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy obyektlari ta'sir etgan. Termiz shahri bir paytlar harbiy shaharcha bo'lgan. Sobiq sho'rolar davrida respublikamizning janubiy darvozasi Viloyat markazi funksiyasini bajaruvchi mazkur shahar eng chekka transchegaraviy hududda, siyosiy markazlardan ancha olisda, o'ziga xos noqulay iqlim sharoitiga ega botiqda joylashgan. Tabiiyki, bunday holat shaharning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini ancha cheklaydi. Viloyat markazining ta'sir doirasi yoki rayon hosil qilish qobiliyati ham yuqori emas. Ko'rinib turibdiki, Termizning shaharga xizmat qiluvchi funksiyasi yaxshi rivojlangan. Bu borada Termiz shaxrida tashkil etilgan geologik muzey ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, Termizning sanoat salohiyati past, tarmoqlar diversifikatsiyalanmagan. Unga mintaqada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining atigi, 9.3 foizi, iqtisodiy rayon doirasida esa 0.8 foizi mos keladi. Shaharlarning ikki asosiy funksiyasi bor: shahar hosil qiluvchi va shaharga xizmat qiluvchi. Har ikkalasi ham ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashuvi, mujassamlashuvi bilan bog'liq.

Aytish joizki, mustaqillik sharoitida viloyat markazining siyosiy, transport geografik o'rni birmuncha kuchaydi. Shahardagi yirik xalqaro aeroport xorijiy mamlakatlar, xususan, Afg'oniston bilan O'zbekiston aloqalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. 2008-2012 yillarda viloyatni kompleks rivojlantirish dasturi doirasida G'uzor – Surxon elektr uzatish liniyasi, Termiz – Xayraton – Mozori Sharif va Toshg'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'li va boshqa bir qator yirik investitsion loyihalar amalga oshirildi. Istiqbolda shaharni qo'shni Afg'oniston Respublikasi bilan bog'lovchi Termiz-Mozori Sharif-Hirot-Bandar Abbas va Chorbahor yo'nalishidagi Transafg'on yo'lagi uning transport funksiyasini yanada kuchaytiradi. Keyinchalik Termiz xalqaro miqyosdagi yirik transport tuguniga aylanishi va bu yerda logistik markazlar, erkin savdo hududlari barpo etish imkoniyatlari katta. Hududning geografik joylashuvi, transport tugunining mavjudligi, qolaversa mamlakatimizning MDH mamlakatlariga chiqib ketadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari, respublikaga kirib keladigan asosiy

mahsulotlar aynan shu hududda amalga oshadi. Ayni holat viloyat markazining shahar hosil qiluvchi va unga xizmat qiluvchi vazifalarini uyg'unlikda va aloqadorlikda rivojlanishiga olib keladi.

Termiz shahrida 143,7 ming kishi yoki viloyat aholisining 5,8 foizi istiqomat qiladi. Mavjud aholi turli millat va elatlarga mansub kishilardir. Bularning 60,8 foizini o'zbeklar, 18,7 foizini tojiklar, 3,9 foizini turkmanlar va 4,5 foizini boshqa millat vakillari tashkil etadi. Termiz shahri viloyatning eng janubida joylashgan bo'lib, 30 ta mahalla fuqarolar yig'inlari, 6 ta kichik dahalar mavjud.

Arxeologik topilmalar, arab va yunon manbalarida keltirilgan ma'lumotlar Termizning Sharqdagi qadimgi shaharlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Shaharning qulay geografik o'rni, strategik ahamiyatga molik joyda bo'lganligi, sharqni g'arb, janubni shimol bilan bog'lovchi savdo chorrahasida barpo etilishi, uning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratgan. Buyuk ipak yo'lining muhim bir tarmog'i ham Termiz orqali o'tgan.

Qadimgi Sharq tsivilizatsiyasining shakllanishida Termizning o'ziga xos o'rni bor. Ko'xna Termizning qal'a qismida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari va yozma manbalarning tahliliga ko'ra shaharga mil. av. I ming yillikning o'rtalarida asos solingan.

Asrlar osha Termiz shahri hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan, hududi kengayib borgan. Shaharda bir qancha mahobatli binolar barpo etilgan. Shulardan biri Eski shahardagi Termiz shohlar saroyi bo'lib, hozirgacha saqlanib qolgan. Shaharda temirchilik, shishasozlik, kulolchilik, ayniqsa, hunarmandchilik tez rivojlangan. Termizda tayyorlangan hunarmandchilik buyumlariga xorijlik savdogarlarning ham ehtiyoj va qiziqishlari yuqori bo'lgan. Shahar yirik madaniyat va ilm-fan markazi sifatida nom qozongan, Termizlik olimu allomalar fan, madaniyat va ma'rifat taraqqiyotiga, dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shishgan.

Buyuk Ipak yo'li markazida joylashgan bu qadim shahar turli madaniyat va xalqlarni o'zaro bog'lovchi muhim qo'rg'on hisoblangan. Eramizning boshlarida Termiz Markaziy Osiyoning asosiy buddizm markazi bo'lgan. Qora-Tepadagi

toshga o'yilgan budda monastiri, Fayoz-tepadagi Buddha ibodatxonasi, ko'plab ohakli loydan qilingan budda haykallar qoldiqlari, Hakim at-Termiziyning qabri, Sulton Saodat ansambli va afsonaviy Qirq-Qiz qal'asi shahardagi muhim tarixiy yodgorliklar hisoblanadi. 2002 yilda Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi xalqaro miqyosda nishonlandi. Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Sulton Saodat, Kokildor ota yodgorlik majmualari milliy me'morchilikning yuksak talablariga mutanosib ravishda ta'mirlandi. Amudaryo qirg'oqlari bo'yida qad rostlagan muqaddas qadamjo — Hakim at-Termiziy majmuasi butun mintaqadagi eng go'zal ziyoratgohlardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 2014 yil 22 avgustdagi Farmoniga muvofiq mustaqillik yillarida shahar ahlining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda erishgan muvaffaqiyatlari, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, millatlararo do'stlik va hamjihatlik munosabatlarini rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi, xalqimizning tarixiy va ma'naviy merosini asrab-avaylash, yoshlarimizni ulug' ajdodlarimizga xos ezgu qadriyatlar, mardlik va jasorat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi katta xizmatlari uchun hamda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 23 yilligi munosabati bilan Termiz shahri Amir Temur ordeni bilan mukofotlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, Termiz shahrining 2035 yilgacha bo'lgan bosh rejasi tasdiqlandi.

Bosh rejaga ko'ra, Termiz shahrining markaziy qismini rekonstruktsiya qilish, ayrim korxonalarini shahar tashqarisiga ko'chirish, hududlar va transport yo'llari holatini yaxshilash hamda aholi uchun zarur muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlangan yangi uylar qurish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, shahar hududi 2018 yildagi 2,78 ming gektardan 2035 yilda 4,341 ming gektargacha kengayadi. Aholi soni 143,7 ming kishidan 195 ming kishigacha etishi rejalashtirilgan

Termiz shahri viloyatning asosiy sanoat shaharlaridan biri bo'lib uning viloyat iqtisodiyotida tutgan o'rni yuqori hisoblanadi.

Viloyatning jami sanoat mahsulotlarining 16,5 foizini beradi (2017-yil). Shu jumladan jumladan hududiy sanoat mahsulotlarining 18,2 foizini, xalq istemol mollarini 15,9 foizini, oziq-ovqat mahsulotlarini 13,4 foizini, nooziq-ovqat mahsulotlarini esa 14,5 foizini, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 0,2 foizi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 15,5 foizni, qurilish ishlari 22,9 foizni, chakana savdo aylanmasi 19,3 foizni, xizmatlar sohasi 39,8 foizni, tashqi savdo aylanmasi 13,6 foizni, eksport 16 foizni va import 10,7 foizni tashkil qilgan. Termiz shahrining viloyat iqtisodiyotida tutgan o'rnini qay darajada ekanligini yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Урбанизация жараёнларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5623-сонли Фармони. 10.01.2019. <http://lex.uz>
2. Акрамов З. М., Раимов Т. И. Об экономико географическом изучении городов Узбекистана // Научные труды ТашГУ. Т., 1964. С. 5 - 35.
3. Ата - Мирзаев О. Б., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Т.: Университет, 2002. – 125 с.